


2022- yilning yanvar-sentabrida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 32 581,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 4,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 115,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,2 % ga yetdi.





BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	26 910,9	32 581,6	104,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 904,4	31 076,1	104,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1 006,5	1 505,5	108,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 904,4	31 076,1	104,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 881,1	13 382,9	103,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 270,0	8 221,8	104,6
sanoat	3 999,9	5 588,3	106,6
qurilish	2 270,1	2 633,5	101,2
xizmatlar	7 753,3	9 471,4	106,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 950,9	2 492,1	112,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 490,6	1 707,0	108,9
boshqa xizmat tarmoqlari	4 311,8	5 272,3	103,0



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 385,0 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʼrsatkich oʼtgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʼsish surʼatlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʼshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 95,4 % ini, mahsulotlarga soʻf soliqlar esa 4,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligining YAHMning tarmoqlar boʼyicha tarkibidagi ulushi 43,1 % ni, sanoat tarmogʼi 18,0 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 30,4 % ni tashkil qildi.





BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	95,4
mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	4,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,9	43,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,2	26,5
sanoat	15,4	18,0
qurilish	8,8	8,5
xizmatlar	29,9	30,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	8,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	16,6	16,9

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga soʻf soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,1 %), sanoatda – 106,6 % (18,0 %), qurilishda – 101,2 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 106,6 % ni (30,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,8 % (8,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,9 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % (16,9 %) dan iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida salbiy 0,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,1 f.p.(2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 4,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,5 f.p.)ga ko'paydi

**2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning
hissasi (jamiga nisbatan % da)**





BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 131,1 % va qurilish tarmog'ida – 114,7 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 74,6 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrida – 76,8%).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

